
766 TA MUROJAAT IJOBİY HAL ETILDI

Davlatimiz rahbarining videoselektor yig'ilishida belgilab bergan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Buvayda tuman Xalq qabulxonasi tomonidan hokim hamda sektor rahbarlarining qabuli tashkil etilib, hal etilmagan murojaatlar qayta ko'rib chiqilmoqda. O'tgan bir hafta davomida tuman hokimi va sektor rahbarlariga moddiy yordam, nafaqa va aliment so'rab 161 nafar, elektr energiyasi va ta'minoti to'g'risida 90, mehnat va aholi bandligi bo'yicha 64 ta, uy-joy va yer nizolari shuningdek, yana bir qator ijtimoiy-maishiy masalalar bo'yicha jami 766 ta murojaat kelib tushdi. Ulardan 437 tasi ijobiy hal etildi, 331 nafar murojaatchiga huquqiy maslahat berildi.

Buvayda tumani hokimligi axborot xizmati.

2021-08-05 15:10:39